

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**



**O'ZBEK TILSHUNOSLIGI VA JURNALISTIKA KAFEDRASI**

**TILSHUNOSLIKKA KIRISH**

**O'QUV DASTURI**

|                           |                                      |
|---------------------------|--------------------------------------|
| <b>Bilim sohasi:</b>      | 200 000 – San'at va gumanitar fanlar |
| <b>Ta'lim sohasi:</b>     | 230 000 – Tillar                     |
| <b>Ta'lim yo'nalishi:</b> | 60230400 – Kompyuter lingvistikasi   |
| <b>Ta'lim shakli:</b>     | kunduzgi                             |

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi 300 talik ro'yxatga kiruvchi **University of Oxford (3)**, **University of Potsdam (51)** ta'lim dasturi asosida tayyorlandi. (<https://www.ox.ac.uk/> <https://www.uni-potsdam.de/en/university-of-potsdam>)

| Semestr | Fan/modul kodi<br>TK1105               | Fan/modul turi<br>majburiy | Ta'lim tili              |                              | Ishlab chiqilgan o'quv<br>yili<br>2025/2026 |
|---------|--|----------------------------|--------------------------|------------------------------|---|
|         |  |                            | Hafalik dars<br>soatlari | Auditoriya<br>mashg'ulodlari |   |
| 1       | Har bir semestr-dagi<br>modulning nomi | ECTS - Kreditlar           | 5                        | 60                           | Jami yuklama<br>(soat)                      |
|         |  |                            | 5                        | 60                           |   |
| Jami:   |  |                            | 4                        | 60                           | 150   |
|         |  |                            | 4                        | 60                           | 150   |

## 2. I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad - Kompyuter lingvistikasi ta'lim yo'nalishi talabalarini "Tilshunoslikka kirish" fanining predmeti va vazifalarini, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, tilshunoslik bilimlarining kompyuter lingvistikasi sohasidagi o'rinni bayon etish. Talabalarga tilning ijtimoiy tabiati, shakllanish jarayoni, taraqqiyoti, til va jamiyat, til va tafakkur munosabati, til-lison-nutq munosabatini tahlil qilish, yozuvning shakllanish bosqichlarini, tilning semiotik tabiati, til sathlari, tillar oilasi, tilshunoslikning tadqiqot metodlarini tahlil qilish, tilshunoslikdagi yangi yo'nalishlar haqida ma'lumot berish.

Fanning vazifasi - tilshunoslik tarmoqlari, til sathlari, duryo tillari tavsifi, tasnifi o'zlashtirish, tilshunoslikning asosiy terminologik apparatini, tahlil metodlarini qo'llash kompetensiyasini shakllantirish.

## II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

### 1-mavzu. Kirish. Til - insonning eng muhim aloqa vositasi.

Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi. Tilshunoslik fani mavzusi va asosiy tarmoqlari. Amaliy tilshunoslik. Til va tafakkur. Til va nutqiy faoliyat

### 2-mavzu. Tilning paydo bo'lishi haqidagi farazlar

Tillarning shakllanishiga doir nazariyalar. Ko'pna Sharqda tillarning paydo bo'lishiga oid qarashlar. Zamonaviy tadqiqotlar tahlili

### 3-mavzu. Til taraqqiyotining jamiyat taraqqiyoti bilan munosabati.

Til va jamiyat. Sotsiolingvistika. Tillarning jamiyatdagi ko'rinishlari.

### 4-mavzu. Tilning semiotik tabiati<sup>1</sup>.

Tilning semiotik tabiati. Til birliklarining tizim sifatidagi munosabati. Til

strukturali elementlari - til sathlari. Tilshunoslik fani bo'limlari.

What is Semiotics? Information about the material carriers of social information. The formation of the approach to language as a sign in the teachings of Ferdinand de Saussure. Linguistic sign as a unity of concept and material pronunciation. Language levels. The phonetic-phonological level of language. The lexical level. The grammatical level. The interrelation of language units as separate systems.

### 5-mavzu. Til birliklari o'rtasidagi munosabatlari.

Paradigmatik munosabat. Assotsiativ munosabat. Sintagmatik munosabat. Iyerarxik munosabat.

### 6-mavzu. Yozuv va imlo.

Yozuvning shakllanishi va rivojlanishi. Yozuv turlari. Piktografik, ideografik, logografik va fonografik yozuvlar.

### 7-mavzu. Tilning lug'at sathi

Tilning lug'at tarkibi. Til taraqqiyotida lisoniy va nolisoniy omillar. Leksikologiyaning turlari: umumiy va xususiy leksikologiya. Diaxron va sinxron leksikologiya. Leksikologiyaning semasiologiya, onomasiologiya, etimologiya, frazeologiya, so'z yasalishi kabi bo'limlar bilan aloqasi.

Leksemaning til birligi sifatidagi mohiyati. Leksemaning ifoda va mazmun plani. Leksema, semema, sema tushunchalarining mohiyati. Leksik va grammatik ma'no munosabati. Leksik-semantik paradigmalari.

### 8-mavzu. Tilning fonetik-fonologik sathi

Fonetikaning tadqiqot maqsadi va usuliga ko'ra turlari: umumiy fonetika, xususiy fonetika (tavsifiy fonetika, tarixiy fonetika), qiyosiy fonetika eksperimental fonetika. Fonetika aspektlari: 1. Fizik-akustik aspekt. 2. Anatomik-fiziologik aspekt. 3. Perseptiv aspekt. 4. Lingvistik-funksional aspekt.

Fonemaning differensial va integral belgilari. Fonema nazariyalari.

Fonetik o'zgarishlar. Kombinator tovush o'zgarishlari. Assimilyatsiya, akkomodatsiya, ularning turlari. Proteza, epenteza. Prokopa, sinkopa, apakopa, eliziya, aferezis, gapologiya, metateza, dissimilyatsiya, geminatsiya, degeminatsiya, sinerezis. Nazalitatsiya. Pozitsion tovush o'zgarishlari.

Nutqning fonetik bo'linishi. Frazza, takt, bog'in, tovush. Intonatsiya (intonema)

### 9-mavzu. Leksema va so'z munosabati

Leksema va so'z munosabati. So'zning ifoda va mazmun tomoni. Semasiologiya. Lug'aviy va grammatik ma'no. Leksema va semema. Semema va uning tarkibiy qismlari (nomlash, ifoda, mohiyat semalari). So'z va tushuncha. Bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik. Ma'no ko'chirishining asosiy yo'llari: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik.

### 10-mavzu. So'z turkumlari tasnifi.

So'z turkumlari tasnifi. So'zlarni turkumlarga ajratish mezonlari. Mustaqil so'z turkumlari. Ularning tillararo farqlanishi. O'zgaruvchi va o'zgarmas leksemlar. Yordamchi so'z turkumlari. Ularga xos bo'lgan "oralik uchunchi"lik tabiati.

So'z-gaplar va ular haqida ma'lumot. So'z-gaplar tasnifi. So'z-gaplarining lisoniy sintaktik qolipi.

<sup>1</sup> Mazkur fan dasturi xalqaro fan olingan reytinglarda birinchi 300 talik ro'yxatga kiritilgan University of Oxford (3), University of Potsdam (51) ta'lim dasturi asosida tayyorlandi. (<https://www.ox.ac.uk/> <https://www.uni-potsdam.de/en/university-of-potsdam>)

|  |   |
|--|---|
| <p><b>11- mavzu. Sintaksis.</b><br/>Sintaksis. Soʻz birikmasi va uning turlari. Sintaktik munosabat. Sintaktik munosabtni ifodalash yoʻllari. Lisoniy sintaktik qolip (LSQ). Valentlik. Leksik va grammatik shakl valentligi. Substantzial morfologiya, valentlik va sintaksis munosabati. Gap. Uning muomala vositasining eng muhim birligi ekanligi. Gapning asosiy belgilari. Gap nutq birligi sifatida. Gap boʻlaklari va ular iyerarxiyasi. Gapning ifoda maqsadiga koʻra turlari. Gapning tuzilishiga koʻra turlari. Sodda gap va uning qurilish qolipi. Qoʻshma gap va uning qurilish qolipi. {S+P} qurilish qolipiga ega boʻlgan tillar xususida. [WPM]-oʻzbek tilidagi gapning minimal qolipi ekanligi.</p> <p><b>12- mavzu. Tilshunoslikning tadqiqot metodlari.</b><br/>Umumiy va xususiy metodlar. Eksperimental-fonetik metod. Lingvogenetik tadqiqot metodlari (qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, miqdoriy, transformatsion). Areal tadqiqot metodlari (qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, kartografik, statistik, kadastrlash). Tipologik tadqiqot metodlari (qiyosiy, izomorfizm va allomorfizm). Distributiv metod. Tarkibiy qismlarga ajratish metodi.</p> <p><b>13- mavzu. Tilshunoslik va boshqa fanlar integratsiyasi</b><br/>Tilshunoslik va ijtimoiy fanlar. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan integratsiyasi asosida yuzaga kelgan soha va yoʻnalishlar.</p> <p><b>14- mavzu. Dunyo tillari tavsifi va tillar tasnifi</b><br/>Dunyo tillari. Qadimiy tillar. Oʻlik tillar. Tillarning geneologik va tipologik tasniflari. Til oilalari. Til guruhlari. Turkiy tillar oilasi. Qoʻshimchali va qoʻshimchazis tillar. Agglyutinativ, flektiv tillar.<br/>Tillarni oʻrganishda qoʻllaniladigan metodlar. Umumiy va xususiy metodlar. Qiyosiy-tarixiy metod. Statistik tahlil metodi. Komponent tahlil metodi.<br/><b>15- mavzu. Korpus lingvistikasining tilshunoslik fanlari orasida tugʻan oʻmi.</b><br/>Korpusning lingvistika, lingvodidaktikada maʼlumotlarni qayta ishlash imkoniyati. Korpusning leksikologiya, morfologiya, sintaksis hamda xorijiy tillarni oʻqitishdagi ahamiyati. Korpus: yozma va ogʻzaki, bir tili va koʻp tili.</p> <p><b>III. Amaliy mashgʻulotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Til-ijtimoiy hodisa</li> <li>2. Tilshunoslik fani mavzusi va asosiy tarmoqlari</li> <li>3. Tillarning shakllanishiga doir nazariyalar</li> <li>4. Til va jamiyat.</li> <li>5. Lugʻaviy sath</li> <li>6. Morfema tushunchasi.</li> <li>7. Grammatika.</li> <li>8. Yozuvning paydo boʻlishiga oid qarashlar.</li> <li>9. Dunyo tillari tavsifi</li> <li>10. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan integratsiyasi asosida yuzaga kelgan soha va yoʻnalishlar.</li> <li>11. Til va nutqiy faoliyat</li> <li>12. Fonetika. Unilar hamda undoshlar tizimi, ularga xos xususiyatlar</li> <li>13. Morfemik sath. Morfologiya</li> <li>14. Tasniflash mezonlari.</li> </ol> | <ol style="list-style-type: none"> <li>15. Til oilalari va til guruhlari.</li> <li>16. Eksperimental-fonetik metod.</li> <li>17. Areal tadqiqot metodlari</li> <li>18. Tipologik tadqiqot metodlari</li> <li>19. Distributiv va tarkibiy qismlarga ajratish metodi</li> <li>20. Kompyuter lingvistikasi</li> </ol> <p><b>V. Mustaqil taʼlim va mustaqil ishlar</b></p> <p>Fan boʻyicha mustaqil taʼlimni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ilmiy adabiyot, darslik va oʻquv qoʻllanmalar boʻyicha fan mavzularini oʻrganish;</li> <li>• taqdimot (PPT) va tarqatma materiallar boʻyicha maʼruzalar qismini oʻzlashtirish;</li> <li>• maxsus adabiyotlar boʻyicha fan mavzulari ustida ishlash;</li> <li>• talabning oʻquv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bogʻliq boʻlgan fanlar boʻlimlari va mavzularni chuqur oʻrganish;</li> <li>• muammoli mavzular boʻyicha tezis, maqolalar tayyorlash;</li> <li>• badiiy asarlardan mavzuga doir misollarni toʻplash;</li> <li>• faol va muammoli oʻqitish uslubidan foydalanish;</li> <li>• masofaviy (distanson) taʼlim.</li> </ul> <p><b>Mustaqil taʼlim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Tilshunoslik va tabiiy fanlar</li> <li>2. Kommunikativ tilshunoslik.</li> <li>3. Nazariy tilshunoslik.</li> <li>4. Amaliy tilshunoslik</li> <li>5. Antroposentrik paradigma</li> <li>6. Neyrolingvistika va Neyrolingvistik dasturlash</li> <li>7. Kognitiv tilshunoslik</li> <li>8. Tarjimada transformatsion metoddan foydalanish afzalliklari.</li> <li>9. Kompyuter lingvistikasi.</li> <li>10. Korpus lingvistikasi.</li> <li>11. Nutqiy faoliyat.</li> <li>12. Lingvodidaktika</li> <li>13. Til va madaniyat.</li> </ol> <p><b>3.</b> Fanni oʻzlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- tilshunoslik fanining maqsadi va vazifalari, tilshunoslik tarmoqlari, xususan amaliy tilshunoslikning jamiyat hayotidagi ahamiyati, til va tafakkur, til va madaniyat, til va nutq munosabatlarini anglashi;</li> <li>- til birliklarining oʻzaro mutanosib, yaxlit tizim sifatida namoyon boʻlishini, til sathlari mohiyatini yoritishni;</li> <li>- tilshunoslikning ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan aloqasi, tillarning tasnifi bilan tanish boʻlishi, tilshunoslik tadqiqot metodlari haqida <i>tusuvvurga</i> ega</li> </ul> |
|--|---|

|  |   |
|--|---|
| <p><b>bo'lishi kerak;</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- tilshunoslikka doir asosiy tushunchalarni o'zlashtirishi, muayyan nazariy masalalar doirasida mustaqil fikr qilish <b>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;</b></li> <li>- tilshunoslik bo'yicha ilmiy adabiyotlarga o'z nuqtayi nazarini ilmiy asoslab berishi va bulardan amaliy masalalarni yechishda foydalana olish <b>malakasiga ega bo'lishi zarur.</b></li> </ul>  | <p><b>4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <p>“Tilshunoslikka kirish” fanini o'tishda interfaol metodlar, xususan, blis-so'rov, taqdimotlar (PPT) qilish, jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar, analiz, sintez, statistik, ijodiy yondashuv, tavsiflash, tasniflash, baholash, komponent tahlil, amaliy ishlarni bajarish va xulosalash va boshqa metod hamda usullardan foydalaniladi.</p>   |
| <p><b>5. VII. Talabalarning kreditlarni olish tartibi</b></p> <p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan “OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom” Nizomning 15- va 30-bandlariga asosan Tilshunoslikka kirish fanidan 150 soat (1-semestrda 150) o'quv yuklamasini o'zlashtirgan, fan dasturi(sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra ijodiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan talabaga 5(1-semestrda 5) <b>kredit beriladi.</b></p> <p>Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda <b>kreditlar berilmaydi.</b></p> <p>Talabalarning bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan “Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida”gi Nizom talablari asosida belgilanadi.</p> | <p><b>Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.</b></p> <p><b>Oraliq nazorat:</b> O'tilgan mavzular asosida <b>yozma</b> shaklda <b>1 marta</b> o'tkaziladi. ON savollariga namunalar:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Til-ijtimoiy hodisa. Tilning asosiy vazifalari (funksiyasi)</li> <li>2. Tilning kommunikativ va akkumulyativ vazifalari nimalardan iborat?</li> <li>3. Tilning ijtimoiy hodisa ekanligini misollar yordamida izohlang.</li> <li>4. V. fon Gumboldt, Ferdinand de Sossyur faoliyati</li> <li>5. Amaliy tilshunoslik sohalari</li> <li>6. Tillarni qiyosiy-tarixiy o'rganish (M.Kosbg'ariy “Devon”i misolida tahlil).</li> <li>7. Alisher Navoiyning til va nutqqa oid fikrlarini yozing va izohlang.</li> </ol> |

|  |   |
|--|---|
| <p><b>Yakuniy nazorat:</b> Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha <b>yozma</b> shaklda o'tkaziladi.</p> <p>YN savollariga namunalar:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Alisher Navoiyning “Muhokamat-ul lug' atayn” asari muqaddimasida tilning paydo bo'lishiga doir qanday qarashlar bayon qilingan? Izohlang.</li> <li>2. Tabiiy nazariyani qanday izohlaysiz?</li> <li>3. Izhor nazariyasini qanday izohlaysiz?</li> <li>4. Til taraqqiyotida lug'at boyligi nisbatan tez o'zgaruvchan bo'ladi, degan fikrni izohlang.</li> <li>5. Adabiy til va so'zlashuv tili tushunchalarini misollar yordamida tushuntiring.</li> <li>6. Til taraqqiyoti jarayoni: ichki va tashqi qonuniyatlar nimalardan iborat?</li> <li>7. Til taraqqiyotida differentsiatsiya va integratsiya jarayoni qanday farqlanadi?</li> <li>8. Qanday me'yorlar adabiy til me'yorlari hisoblanadi?</li> <li>9. Sotsiologiyavistika. Tilning jamiyatdagi ko'rinishlari. (argo, jargon, sleng)</li> <li>10. Umumxalq va milliy til. Kreol va Pijin tillari haqida ma'lumot bering.</li> <li>11. Adabiy til me'yorlari va shevalar haqida ma'lumot bering.</li> </ol> | <p><b>Izoh: Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 marta gacha o'tkazilishi mumkin.</b></p> <p><b>Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.</b></p> <p><b>Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari miyyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.</b></p> <p><b>Talabalarning bilimni baholash mezonlari:</b></p> <p><b>5(a'lo) baho.</b> Talaba <b>yozma, og'zaki, amaliy ish</b> topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, nazariy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi, masalaga oid daliliy misollarni tanlay oladi va ularni to'g'ri tahlil etish asosida ma'lum ilmiy xulosalar chiqara biladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'g'ri izohlay oladi, dars jarayonida berilgan nazariy savollarga to'g'ri javob bera oladi, berilgan vazifa yuzasidan keng nazariy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, mavzuga oid masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qila oladi.</p> <p><b>4(yaxshi) baho.</b> Talaba <b>yozma, og'zaki, amaliy ish</b> topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, ammo ishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yadi, nazariy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritiladi, masalaga oid daliliy misollarni tahlil etish asosida ma'lum ilmiy-nazariy xulosalar chiqara oladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini izohlashda ba'zi ikkilanishlarga, kamchiliklarga yo'l qo'yadi, dars jarayonida berilgan nazariy savollarga to'g'ri javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan muayyan nazariy</p> |
|--|---|

bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, biroq mavzuga oid masalalar yuzasidan yetarli qaror qabul qila olmaydi.

**3(qoniqarli) baho.** Talaba *yo'zma, og'zaki, amaliy mashg'ulotlari* topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajarish jarayonida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi, nazariy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritishda ma'lum ilmiy-nazariy xatolarga yo'l qo'yadi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'liq izohlay olmaydi, dars jarayonida berilgan nazariy savollarga qisman javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan yetarli bilimga ega bo'lmaydi. Talabada fikrni izchil, erkin va ravon ifodalash, mavzuga oid masalalar yuzasidan qaror qabul qila olish ko'nikmasi to'liq shakllanmagan bo'ladi.




**2(qoniqarsiz) baho.** Talaba fan bo'yicha yetarli bilimga ega emas, nazoratlarda juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi, og'zaki savollarga qiyinchilik bilan javob beradi, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi.

**6. Asosiy adabiyotlar**

1. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – T.: O'qituvchi, 1992.
2. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. – T.: O'qituvchi, 1996.
3. Xolmatova Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2019.
4. Расулов Р. Умумий тилшунослик. (Тилшунослик тарихи). Ўқув қўлланма. 1-2-қисм. – Т. 2007. – 256 б.
5. Toirova G.I., Namroyeva N.N., Nematova N.R. Tilshunoslik nazariyasi. O'quv qo'llanma. Vuxoro: "BUKHARA HAMD PRINT" nashriyoti, 2025. - B. 72.

**Qo'shimcha adabiyotlar**




4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакаتلар стратегияси" тўғрисидаги Фармони ("Халқ сўзи", 2017 йил, 8 февраль).
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари" тўғрисида ("Халқ сўзи" 2017 йил, 21 апрель)
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoni (<https://lex.uz/docs/4561730>)
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni (<https://lex.uz/docs/5058351>)
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi "O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida"gi O'RG-615-son Qonuni (<https://lex.uz/docs/4784608>)
9. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildli. 1-jild. – T.: Akademmasht, 2012
10. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. - Toshkent: Fan, 2013
11. Sanaqulov U., Turobov A. Tilshunoslik nazariyasi. (O'quv qo'llanma). - SamDU nashriyoti, 2019. - 164 bet.

|  |  |
|--|--|
| 12. Sayfullayeva R.R., Abuzalova M.Q. va b. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2021.-259                               | 7. Fan dasturi Universitet Kengashning 2025-yil ___-avgustdagi ___-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.   |
| 13. Худойберганаева Д.Тил. Тафаккур. Маданият. – Тошкент, 2020<br><b>Axborot manbaalari</b>                            | 8. <b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b> G.I.Toirova – BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasini professori, filologiya fanlari doktori (DSc)  |
| 1. Введение в языкознание <a href="http://homepages.tversu.ru/">http://homepages.tversu.ru/</a>                        | 9. <b>Таqrizchilar:</b> M.Q.Abuzalova – BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasini professori, filologiya fanlari doktori (DSc)            |
| 2. Введение в языкознание <a href="http://www.alleng.ru/">http://www.alleng.ru/</a>                                    | B.E.Kilichev – BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasini professori, filologiya fanlari doktori (DSc)                                    |
| 3. Введение в языкознание. Маслов Ю.С. <a href="http://philologos.narod.ru/">http://philologos.narod.ru/</a>           |  |
| 4. Словари и справочники <a href="http://www.gramota.ru/">http://www.gramota.ru/</a>                                   |  |
| 5. <a href="http://library.ziyouz.com/books/uzbek_adabiy_tili/">http://library.ziyouz.com/books/uzbek_adabiy_tili/</a> |  |
| 6. <a href="https://www.ziyouz.com/books/uzbek_adabiy_tili/">https://www.ziyouz.com/books/uzbek_adabiy_tili/</a>       |  |
| 7. <a href="https://e-library.namdu.uz/">https://e-library.namdu.uz/</a>   |  |
| 8. <a href="https://coollib.com/b/139320/read">https://coollib.com/b/139320/read</a>                                   |  |

**O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i**

**Kafedra mudiri**

**Tuzuvchi**

S.Davlatov

B. Qilichev

G.Toirova